

Namangan viloyati Chust shahar Pansada MFY da yoshlar bilan uchrashuv

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-92-sonli qarori ijrosi bo'yicha Namangan viloyati Chust shahar Pansada MFYda uyushmagan yoshlar bilan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobining mazmun-mohiyati, "Harakatlar strategiyasidan - taraqqiyot strategiyasi sari", "Jaholatga qarshi ma'rifat", "Jinoyatchilik va huquqbazarlikni oldini olish" va "Bugun dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlar" mavzularida davra suhbatli o'tkazildi.

Suhbatda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti yetakchi ilmiy xodimi, texnika fanlari nomzodi Sa'dillaxon Umarxonov va Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Chust tuman bulinmasi bosh mutaxassis Sobirxon Mo'minovlar ishtiroy etishdi. Davra suhbatli qizg'in tarzda o'tdi, taklif qilingan mehmonlar yoshlarning qiziqqan savollariga javoblar berishdi.

